

SYUJETLI-ROLLI O`YINLARNING BOLA FAOLIYATIDAGI AHAMIYATI

Sidiqova Yulduz

Osiyo Xalqaro universiteti

“Pedagogika va psixologiya” kafedrasida o‘qituvchisi

<tel:+998914164032> yulduzsobirova048@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada o‘yinning bola faoliyatini tashkil etishdagi ahamiyati, shuningdek syujetli -rolli o‘yinlarning bola faoliyatidagi ahamiyati tahlil qilingan.

Kalit so‘z: Didaktik o‘yin, syujetli-rolli o‘yin, pedagog, bolaning ijodiy qobiliyatlari.

ЗНАЧЕНИЕ РОЛЕВЫХ ИГР В ДЕТСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Сидикова Юлдуз

Азиатский международный университет

Преподаватель кафедры «Педагогика и психология»

<tel:+998914164032> yulduzsobirova048@gmail.com

Аннотация: В данной статье анализируется значение игр в организации деятельности детей, а также значение ролевых игр в деятельности детей.

Ключевые слова: дидактическая игра, сюжетно-ролевая игра, педагог, творческие способности ребенка.

THE IMPORTANCE OF ROLE PLAYS IN CHILDREN'S ACTIVITIES

Sidikova Yulduz

Asian International University

Lecturer at the Department of Pedagogy and Psychology

<tel:+998914164032> yulduzsobirova048@gmail.com

Abstract: This article analyzes the importance of games in organizing children's activities, as well as the importance of role-playing games in children's activities.

Key words: didactic game, role-playing game, teacher, child's creative abilities.

O'yin shaxsning tarbiyalash, rivojlantirish ta'lim berish xususiyatlariga ega. O'yinning mavjud xususiyatlari tufayli o'yinlar bolaning rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda. Bevosita o'yinlar bolalarda idrok, sezgi, xotira, tafakkur, nutqni rivojlantirishga yordam berish orqali ularni ma'naviy axloqiy, aqliy, jismoniy, va estetik jihatdan tarbiyalashga xizmat qiladi. O'yin maktabgacha yoshdagi bolalar faoliyatining asosiy shakli bo'lib hisoblanadi. O'yin orqali bola shaxs bo'lib shakllanadi. O'yin bolaning kelajakdagi o'quv mehnat faoliyati, kishilarga munosabatning qay darajada shakllanishini belgilab beradi. O'yin bolaning jismoniy rivojlanishi, MTTning ta'lim-tarbiya ishida bolalarni aqliy, axloqiy mehnat va estetik jihatdan tarbiyalashda katta ahamiyatga ega.

Maktabgacha ta'limda o'tkaziladigan har qanday ta'limiy faoliyatni didaktik o'yinlar orqali tashkil etish, pedagog boshchiligida qo'llanilayotgan ta'lim usullari kichik guruhdan o'rta guruhga, undan katta va maktabga tayyorlov guruhlariga o'tish asosida o'zgarib, murakkablashib boradi. Bu jarayonda didaktik o'yinlarni, ta'lim usullaridan foydalangan holda qo'llash pedagogning kreativ kompetentligi va mahorati darajasiga bog'liq holda tarkib topib boradi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni nutq o'stirish faoliyatlari asosida tafakkurini rivojlantirish bir necha bosqichda amalga oshiriladi. Masalan: narsalar, hodisa yoki jarayonlarni tabiiy holatda namoyish qilish bolalar tafakkurini rivojlantirishda didaktik samara beradi. Biroq, bunday namoyishni amalga oshirish har doim ham mumkin bo'lavermaydi. Shu sababli, tarbiyachilar tabiiy predmetlarni namoyish qilishda sun'iy muhitga murojaat qilishadi (masalan, hayvonlar bilan "Hayvonot bog'ida", turli ko'kat o'simliklar bilan "Issiqxonada", sabzavotlar bilan "Dalada", mevalar bilan "Bog'da" nomli suvjetli suratlar orqali tanishish) yoki sun'iy ravishda yaratilgan obyektlar (maket, model, mulyaj va boshqalar)dan foydaniladi. Mazkur jarayon texnologik ta'lim tizimining yuqori darajali imkoniyatlarini ochib beradi. Mashg'ulotlar jarayonida tafakkurni rivollantirish usuliyoti ilmiy pedagogik didaktik shart-sharoitlar vositalar yig'indisidan iborat. Pedagogik tizim subyektlari hisoblangan tarbiyachi, tarbiyalanuvchi, ta'lim maqsadi, mazmuni, didaktik jarayonlar hamda tashkiliy shakllari yaxlit bir model asosida tashkil etilishini ifodalaydi. Mazkur modul asosiy didaktik elementlar tizimi: o'qitish maqsadi, bola (MTT tarbiyalanuvchilari jamoasi), tarbiyachi (tarbiyachining ta'lim jarayoniga kreativ yondashuvi, faoliyatning qurilishi), didaktik qonuniyatlari, didaktik tamoyillar,

didaktik shart sharoitlar, o'zlashtirish natijalari, o'yinli ta'lim jarayoning o'quv metodik tuzilishidan iborat.

Pedagogning ijodkorligi didaktik o'yinlarni tashkil qilish jarayonida muhimdir. Chunki ularning ijodkorligi pedagogik voqelikni tez o'zlashtirishlari, unga nisbatan kreativ yondashishlarini ta'minlaydi. Didaktik o'yinlar asosida faoliyatlarning o'tkazilishi bolalarning o'zlari orasida, tarbiyachilar va atrof-muhit bilan o'zaro birgalikdagi harakati yotadigan interfaol o'qitish metodlari istiqbolini aks ettiradi. Didaktik o'yinlar bilan bir qatorda harakatli o'yinlar ham maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini o'stirish va tafakkurini rivojlantirishda muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi.

Qadimdan o'yin odam hayotining zarur qismi bo'lib kelgan. Chunki u yoqimli jismoniy yuklamani yetarli darajada beradi, munosabatda bo'lish talablarini qoniqtiradi, tarbiyalaydi hamda tashqaridan ma'lumot olish imkoniyatini yaratadi, shu jumladan ham ko'ngilochar dam olish holatini va kayfiyatini yaxshilaydi. Psixologiyadan bizga ma'lumki, bolalar faoliyatining asosini o'yin tashkil etadi. Ular o'z hayot tajribalarini kun davomida ko'rgan kechiganlarini o'yin tarzda namoish etadilar. O'yilar orqali ta'lim oladilar, rivojlanadilar. Bizga ma'lumki, o'yin bolalarda shodlik, quvonch, tabbasumni ta'minlaydi, bolaning ijobiy xislatlarini shakllanishiga, ochilishiga ijobiy ta'sir etadi, bolalar jismoniy kuchini va qobiliyatlarini rivojlantiradi. Eng avvalo o'yin holatini har doim o'zgarib turishi va harakat jarayonida bola o'zini kuchliligi bilan to'satdan kelib chiqadigan holatdan mustaqil chiqib ketishi, o'z kuchini o'z tezkorligini, kuch va chidamliligini ko'rsatishi, o'rtoqlari bilan hamkorlikda bo'lishni maqsad qilib qo'yishi bilan bolalarni o'ziga rom qiladi.

Tadqiqotlar jarayonida shu narsa ma'lum bo'ldiki ijtimoiy tasavvur qilingan o'yin rivojlantirishning barcha sohalariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Syujetli –rolli o'yin davomida bolalar :

-turli xil narsalarni o'zgartirib ramziy tafakkurdan foydalanishadi (qog'ozlar pulga aylanadi, quti uyga aylanadi);

- turli kasb egalarining harakatlari va fikrlarini takrorlashni talab qiladigan rollarni bajarishadi va qo'llab quvvatlashadi (sartarosh, shifokor, quruvchi, oshpaz, sotuvchi);

-rollar o'rtasidagi munosabatni va ular o'zaro qanday munosabatda bo'lishini anglaydilar;

Syujetli-rolli o'yinlarda bolalar o'zlari bilgan boshdan his qilgan kechinmalarga tayanadi hamda ushbu tajriba asosida qandaydir yangilik yaratishadi.

Syujetli–rolli o'yin–bu juda kichik yoshdagi bolalar murakkab xulq-atvor hamda fuqarolik va ma'naviy kopetensiyalarni egallashga qanchalik tayyor ekanliklarini ko'rsatuvchi ko'p qirrali jarayon. Bu kopetensiyalar maktabgacha ta'lim

tashkilotlarining tajribali pedagoglari tomonidan shakllanadi va yo'naltiriladi. Ular bolalarga boshqalar bilan qanday muvafaqqiyatli o'zaro munosabatda bo'lish, katta bo'lganlarida zimmalariga tushadigan rollarni qanday bajarish haqida bilimlarni beradi.

Uzluksiz ravishda olib borilgan nazorat bolalarni tanlangan maqsad yo'lida harakat qilishlarini nutq va tafakkur jarayonlarini rivojlantirishni nazarda tutadi. Pedagoglar tomonidan to'g'ri tanlangan ta'lim strategiyasi bolaning lug'at boyligi va tafakkur jarayonlarining rivojlanishida samaradorlikka erishishda muhimdir.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning ijodiy qobiliyatlarini o'stirish ham yangicha yondashuvni talab qiladi. Bu esa bolalarda ijodiy qobiliyatlarni namoyon bo'lishida muhim ahamiyat kasb etadi. Ijodiy faoliyat bolaning individualligini rivojlantirishni rag'batlantiradi, o'zini namoyon qilish imkoniyatini beradi, o'ziga va atrofdagi dunyoga ijobiy munosabatni shakllantiradi. Ikkinchidan, bugungi tez o'zgarayotgan dunyoda ijodkorlik zarur. Bu esa, bir tomondan, insonga ushbu o'zgarishlarga osonroq moslashishga imkon beradi, boshqa tomondan, bolalar bu dunyoni faol ravishda o'zgartirishlariga imkon beradi. Bolalarda psixik jarayonlarning rivojlanishida o'yinlarning shakllanish haqida olimlar turli xil qarashlari va nazariyalari mavjud. Maktabgacha yosh davrida yetakchi faoliyat o'yin faoliyatidir. Bolalar o'yinlarda atrofda ko'rgan kechirganlarini aks ettiradilar. O'yinlar aks ettiruvchi faoliyat bo'lib, bola bunda mustaqilligini ko'rsata oladi, o'yin uchun mavzu tanlaydi boshlanishi va oxirini belgilaydi. 3-4 yoshli bola o'ziga tanish bo'lgan insonlarning harakatini, yurish turishini o'zining o'yinlarida namoyon etadi. Masaln, onasining hatti-harakatlarini o'yinida aks ettiradi. Yoshi katta bo'lgani sari o'yinlaridagi ma'no va mazmun ham boyib boradi.

O'yin shunday ahamiyatga egaki, 2013-yilda BMTning "Bola huquqlari to'g'risidagi" Konvensiyasida o'yinlarga quyidagicha izoh berilgan. O'yinlar va o'yin kulgi bolalar salomatligi va faravonligi uchun juda muhimdir va ijodkorlik, tasavvur, o'z-o'ziga ishonch samaradorlik va jismoniy, ijtimoiy kognitiv va hissiy kuch va ko'nikmalarning rivojlanishiga zamin yaratadi. Ular ta'limning barcha jihatlariga hissa qo'shadilar: o'yinlar kundalik hayotda ishtirok etish shakli bo'lib, bolaga faqat quvonch va zavq keltirishi nuqtai nazaridan katta ahamiyatga ega.

Bolalarning ijodiy rivojlanishining eng muhim omillaridan biri bu ularning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishdir. To'rt-besh yoshda rolli o'yin shakllana boshlaydi, bu tasavvur va ijodkorlikni rivojlantirish uchun eng keng imkoniyatlarni beradi. Syujetli rolli o'yinlarni tashkil qilishda tarbiyachining roli juda katta. Rolli o'yihlarni tashkil qilar ekan tarbiyachi bolalarga o'yin mohiyatini tushuntiradi bolalarning fikrlari bilan ham o'rtoqlashishi zarur, ana shundagina bolalarda ijodiy fikrlash, mantiqiy yondashish, muammoga yechim topish,

fantaziya rivojlanadi. Agar bolalar har kuni bir xil "mehmom- mehmon " yoki urush o'ynashsa, tarbiyachi ularga o'yinlarning syujetlarini diversifikatsiya qilishni o'rganishga yordam berishi kerak. Tarbiyachi ular bilan o'ynashi mumkin, turli rollarni o'ynashni taklif qilishi mumkin. Bola birinchi navbatda o'yinda o'zining ijodiy tashabbusini ko'rsatishi, o'yinni rejalashtirishi va boshqarishi kerak.

Bolaning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning muhim shartlaridan biri - bu iloji boricha, bolani uning eng xilma-xil ijodiy faoliyatini rag'batlantiradigan va unda asta-sekin rivojlanib boradigan shunday muhit va munosabatlar tizimi bilan oldindan o'rab olish kerak. Bola fantaziyasini rivojlantirishning eng boy manbai ertakdir. Bolalarning tasavvurini rivojlantirish uchun o'qituvchilar foydalanishi mumkin bo'lgan ko'plab ertak usullari mavjud. Ular orasida: ertakni "buzib ko'rsatish", teskari yo'nalishda ertak o'ylab topish, ertakning davomini o'ylab topish, ertakning oxirini o'zgartirish kabilardir.

Rol syujetli-rolli o'yinning asosiy zanjiri hisoblanadi. O'yin bolada qanoatlanish, xursandchilik hissini paydo qiladi, shuning uchun bolani qiziqtirib, unda yaxshi kayfiyat uyg'otadi, bola organizmidagi hayotiy faoliyatni yaxshilaydi. Avvaliga bolalar o'z-o'zicha alohida-alohida o'ynaydilar. Sekin-asta rolli o'yinlarning paydo bo'lishi, o'yinda kishilar o'rtasidagi munosabatni aks ettirish birgalikda bajariladigan o'yinni keltirib chiqaradi. Avvaliga katta bo'lmagan guruhchalar 2—3 kishidan bo'lib o'ynashadi, katta va tayyorlov guruhlariga kelib kattaroq jamoaga birlashadilar.

Syujetli-rolli o'yin o'z xususiyatiga ko'ra aks ettiruvchi faoliyatdir. Tevarak atrofda kattalar va tengdoshlarining hayoti va faoliyati bu o'yin mazmuniga manba bo'lib xizmat qiladi. Bolalarning tevarak-atrofdagi hayotdan, tengdoshlari, kattalar faoliyatidan olgan taassurotlari ijodiy o'yinda qayta ishlanadi, to'ldiriladi, sifat jihatidan o'zgartiriladi. Bolalarning bunday o'yinlari tevarak-atrofdagi borliqni bilishning amaliy shaklidir. Bolalar o'yinining o'ziga xos tomoni unda tasvirlovchi vaziyatlarning mavjudligidir. Tasvirlovchi vaziyat bolalarga o'yin jarayonida yuklangan rol va o'yin syujetidan tashkil topadi va har xil buyumlardan foydalanishni ham o'z ichiga oladi. O'yinning syujeti – bir-biriga hayotiy aloqador bo'lgan qator voqea – hodisalar yig'indisidir. Shunday qilib o'yinlarning bola faoliyatida ahamiyati juda katta bo'lib o'yin orqali ta'lim bugungi maktabgacha ta'limning bosh mezonini bo'lib hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

Sobirovna, S. Y. (2023). O 'YIN ORQALI BOLA TAFAKKURI VA NUTQINI OSTIRISH. *SAMARALI TA'LIM VA BARQAROR INNOVATSIYALAR*, 1(3), 93-99.

Yulduz, S. (2023). KREATIV YONDASHUVLAR ASOSIDA BOLALAR NUTQI VA TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 23(2), 87-92.

Yulduz, S. (2023). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA EKOLOGIK TA'LIM BERISHNING O'ZIGA XOSLIGI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 21(3), 124-129.

Sobirovna, S. Y. (2022). PEDAGOGNING KREATIVLIGI BOLALAR IJODIY RIVOJLANISHINING ZARUR SHARTI. *PEDAGOGS jurnali*, 1(1), 219-220.

Sobirovna, S. Y. (2022). KICHIK MAKTAB YOSHDAGI O 'QUVCHILAR BILISH FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. *PEDAGOGS jurnali*, 1(1), 158-160.

Sobirovna, Y. S. (2023). Methods and Tools of Economic Education in Preschool Children. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157)*, 1(9), 109-115.

Sobirovna, S. Y. (2023). METODIST FAOLIYATI ASOSLARI. SAMARALI TA'LIM VA BARQAROR INNOVATSIYALAR, 1(5), 108-114.

Sobirovna, S. Y. (2023). Creativity in the work of an educator. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157)*, 1(10), 361-367.

Oktam's, S. M. (2023). "Methods and Tools of Speech Development of Small Group Children in Preschool Education Organization". *American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157)*, 1(9), 104-108.

O'ktam qizi Buxoro, S. M. (2022). BOLANING NUTQINI RIVOJLANTIRUVCHI O 'YINLAR. *PEDAGOGS jurnali*, 1(1), 484-486.

Akbarovna, I. S. (2023). SOCIO-PSYCHOLOGICAL FACTORS OF BEHAVIOR FORMATION IN ADOLESCENTS. *TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN*, 1(5), 184-191.

Akbarovna, I. S. (2023). NEGATIVE AND POSITIVE CHANGES IN ADOLESCENT BEHAVIOR. *TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN*, 1(5), 192-197.

Ikromova, S. A. (2023). FACTORS IN THE DEVELOPMENT OF IMMUNITY TO DESTRUCTIVE IDEAS IN ADOLESCENTS. *Innovation in Science, Education and Technology*.

Hikmatovna, M. N. (2023). Tarbiyaning Maqsad Va Vazifalari. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157)*, 1(9), 386-388.

Hikmatovna, M. N. (2023). BOSHLANG'ICH SINFLARDA TEXNOLOGIYA FANINI O'QITISH JARAYONIDA QO'LLANILADIGAN METOD VA VOSITALAR. *TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN*, 1(5), 339-344.

Gafurovna, L. S. (2023). BO 'LAJAK BOSHLANG 'ICH SINF O'QITUVCHISINING RAQAMLI TA'LIM RESURSLARIDAN FOYDALANISH

KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH TIZIMI. *TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN*, 1(5), 300-309.

Gafurovna, L. S. (2023). THE IMPORTANCE OF USING DIGITAL LEARNING RESOURCES IN PRIMARY EDUCATION. *International Multidisciplinary Journal for Research & Development*, 10(12).

Sobirov, A. (2021). ВИДЫ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ ЗАЩИТЫ ЛИЧНОСТИ В СПОРТЕ И В ЖИЗНИ. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 7(7).

Sobirov, A. (2021). ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ЗАЩИТНЫЕ ФАКТОРЫ ПРОЯВЛЯЮЩИЙСЯ У СПОРТСМЕНОВ: The features of negative psychological defense, manifested in athletes under the influence of external causes, and the factors causing it are classified. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 7(7).

Tursunova, Z. N. (2023). ORGANIZING OUTSIDE THE CLASSROOM IN MOTHER TONGUE SUBJECT. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157)*, 1(10), 468-472.

Ne'matovna, T. Z. (2023). "BOSHLANG'ICH TA'LIM PEDAGOGIKASI" MAZMUNI. *TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN*, 1(5), 324-331.

Narziyeva Shahnoza Rustamovna. (2023). DEVELOPING EMPATHY IN STUDENTS. *Oriental Journal of Academic and Multidisciplinary Research*, 1(3), 127-131.

Kozimova, N. A. (2023). Psixologik konsultatsiya bosqichlari. *TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN*, 1(5), 90-95.

Kozimova, N. A., & Ulugova, S. M. (2022). Classification of a Group of Staff for Psychological Conseling and Referral to It. *Texas Journal of Multidisciplinary Studies*, 7, 175-177.

Narziyeva Shaxnoza Rustamjon qizi. (2023). PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF THE MANIFESTATION OF ADOLESCENT EMPATHY. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157)*, 1(9), 132-134.

Ravshanovna, X. S. (2023). O'qituvchi kasbiy faoliyatida pedagogik muloqot usullarining o'zlashtirish jarayoniga ta'siri va ahamiyati. *Journal of Universal Science Research*, 1(10), 803-816.

Ravshanovna, K. S. (2023). Factors Affecting the Formation of a Positive Attitude to the Learning Activity in Students. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157)*, 1(9), 116-122.0

Сайфуллаева, Н. Б. (2020). Важные особенности дидактических игр в процессе обучения математике в начальных школах. In *ИННОВАЦИОННЫЕ МЕТОДЫ ОБУЧЕНИЯ И ВОСПИТАНИЯ* (pp. 60-62).

VOLUME-2, ISSUE-1

Сайфуллаева, Н. Б., & Мурадова, Я. М. (2020). Пути эффективного использования методов обучения математике в начальных классах. In EUROPEAN RESEARCH (pp. 121-123).

Сайфуллаева, Н. Б. (2022). Методы определения потребностей обучающихся в процессе использования облачных технологий в образовании. *Universum: технические науки*, (2-1 (95)), 57-59.

Isomova, F. A. T. Q. (2022). МАКТАБГАЧА ТАЛИМ TASHKILOTLARIDA BOLALARNI МАКТАБ ТА'LIMIGA TAYYORLASHDA NUTQ O'STIRISH MASHG'ULOTLARINING AHAMIYATI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(1), 947-949.

Isomova Farog'at Tojiddin qizi. (2023). THE CONTENT OF THE FORMATION OF SPEECH AND READING COMPETENCES OF PRESCHOOL CHILDREN. *International Multidisciplinary Journal for Research & Development*, 10(11). Retrieved from <https://www.ijmrd.in/index.php/imjrd/article/view/444>.

UNDERSTANDING EMPATHY: AN ESSENTIAL COMPONENT OF HUMAN CONNECTIONNS Rustamovna

Jalolov, T. S. (2023). СОЗДАНИЕ ПРОГРАММЫ ДЛЯ ИМИТАЦИИ ШИФРОВАНИЯ МАШИНЫ ENIGMA НА ЯЗЫКЕ PYTHON. *TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN*, 1(5), 317-323.

Jalolov, T. S. (2023). STUDY THE PSYCHOLOGY OF PROGRAMMERS. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157)*, 1(10), 563-568.

Kozimova, N. A. (2023). Techniques and methods used in the process of psychological counseling. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157)*, 1(10), 338-341.

Kozimova, N. A. (2023). PERSONALITY TYPES. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157)*, 1(10), 372-377.

Tursunova, Z. N. (2023). START MODERN PRINCIPLES OF ORGANIZING OUTSIDE THE CLASSROOM IN CLASSROOMS. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157)*, 1(10), 494-499.

Gafurovna, L. S. (2023). Mechanism for the Use of Digital Educational Resources by Future Primary School Teachers. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157)*, 1(10), 123-128.